



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025- yil yanvar-sentyabr oylari uchun

- I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1- oktyabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 38 471 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi




Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil 1- oktyabr holatiga, birlik	2025- yil 1- oktyabr holatiga, birlik
Toshkent viloyati	36 484	38 471
Oqqo'rg'on tumani	975	930
Ohangaron tumani	941	1 072
Bekobod tumani	1 107	1 117
Bo'stonliq tumani	1 959	2 108
Bo'ka tumani	970	1 032
Quyi Chirchiq tumani	1 122	1 142
Zangiota tumani	4 383	4 736
Yuqori Chirchiq tumani	1 852	1 934
Qibray tumani	3 152	3 413



Parkent tumani	2 160	2 448
Piskent tumani	893	874
O'rta Chirchiq tumani	1 673	1 680
Chinoz tumani	1 018	973
Yangiyo'l tumani	1 646	1 774
Toshkent tumani	2 594	2 812
Nurafshon shahri	868	854
Olmaliq shahri	1 418	1 588
Angren shahri	2 020	1 996
Bekobod shahri	1 255	1 207
Ohangaron shahri	859	886
Chirchiq shahri	2 389	2 588
Yangiyo'l shahri	1 230	1 307

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-sentyabrida 6 367 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-sentyabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 2 612 ta, boshqa xizmatlarda 822 ta, sanoatda 852 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 642 ta tashkil etilgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-sentyabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-sentyabr oylarida, birlik
Toshkent viloyati	5 373	6 367
Oqqo'rg'on tumani	181	157
Ohangaron tumani	143	221
Bekobod tumani	183	254
Bo'stonliq tumani	320	353
Bo'ka tumani	184	203
Quyi Chirchiq tumani	143	193
Zangiota tumani	589	773
Yuqori Chirchiq tumani	233	265
Qibray tumani	387	510
Parkent tumani	505	402
Piskent tumani	118	141
O'rta Chirchiq tumani	234	271
Chinoz tumani	125	152
Yangiyo'l tumani	210	332
Toshkent tumani	333	487
Nurafshon shahri	180	191
Olmalik shahri	206	285
Angren shahri	295	208
Bekobod shahri	200	202
Ohangaron shahri	117	166
Chirchiq shahri	310	389
Yangiyo'l shahri	177	212

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-sentyabrda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 53,5% ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,2 % punktga kamaygan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025- yil yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 35 276,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 29,7% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 115,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 21 016,0 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 83,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 116,1 % ni tashkil qildi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 37 219,0 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 58,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 149,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi O'rtachirchiq (95,0 %), Oqqo'rg'on (92,2 %), Toshkent (91,4 %) va Ohangaron (80,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 34 197,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 94,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 117,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Bekobod (100,0 %), Ohangaron (99,9 %) va Chirchiq (99,9 %) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 25 491,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 86,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 119,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Oqqo'rg'on (97,6 %), O'rtachirchiq (96,4 %), Parkent (94,8 %) va Bekobod (95,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 35 162,5 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 72,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 111,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Bo'ka (81,5 %), Oqqo'rg'on (80,2 %), Parkent (77,4 %), O'rta Chirchiq (74,7 %) tumanlarida hamda Yangiyo'l (79,8 %) shahri hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 595,8 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 39,0 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'ka (99,9 %), Bekobod (99,8 %), Oqqo'rg'on (91,0 %), Qibray (87,4 %), O'rta Chirchiq (80,8 %) tumanlarida hamda Yangiyo'l shahrida (97,3 %) ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 2 068,6 mln AQSH dollarini yoki jami importning 58,5 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushini Oqqo'rg'on (100,0 %), Bo'ka (99,9 %), Parkent (96,7 %), Zangiota (94,1 %), Toshkent (93,6 %), Bekobod (87,5 %), O'rta Chirchiq (85,3 %), tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 28,7 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 1,0 % punktga kamaygan.

2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 53,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,0 % punktni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,3 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,3 % punktga ko'paygan.

2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,2 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'zgarish bo'lmagan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari


Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida

34,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentyabrda esa 34,9 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-sentyabriga nisbatan 7,0 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-sentyabrda 58,4 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida 58,1 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentyabrda 7,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentyabr oylariga kelib, bu ko'rsatkich 7,0 % bo'lgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentyabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida 40,3 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida 44,6 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida 54,8 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida 51,8 % yoki 3,0 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida 4,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentyabr oylariga kelib, bu ko'rsatkich 3,6 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentyabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi Qurilish sohasida – 38,7 % ni, qishloq o'rmon baliqchilik sohasida – 38,3 % ni savdo sohasida – 34,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – 61,0 % ni savdoda – 58,9 % ni, va qishloq o'rmon va baliqchilik sohasida – 58,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – 11,8 % ni sanoat sohasida – 8,1 % ni va xizmat sohasida – 7,2 % ni tashkil etdi.




Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)

Kichik korxona va mikrofirmalarda 2025-yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yicha yaxshilanish deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik sohasida – 46,2 % ni va xizmatlar sohasida – 39,3 % ni, savdo sohasida– 38,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar bo'yicha o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida – 55,1 % ni, savdo sohasida – 55,0 % ni va xizmatlar sohasida – 53,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlari kamaygan deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – 13,4 % ni, qurilishda– 9,0 % ni va xizmatlar sohasida – 6,7 % ni tashkil etdi.



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati– tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:
O. Xudoynazarov
71 203-45-00 (4530)

Manzil:
100198, Toshkent viloyati,
Nurafshon shahar, Toshkent
yo'li ko'chasi, 90-uy